



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




№7(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 386 sahifa,
13-iyul, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Bolalik davridagi autizmning turli shakllarini differensial tashxislash	10
<i>Saydaliyeva Xojiya Abduljalil qizi</i>	
Autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalarda kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishda qo'llaniladigan korreksion ish tamoyillari	14
<i>Karimova Zulfiya Abduraxmanovna, Saydaliyeva Xojiya Abduljalil qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda axborot iste'mol madaniyatini rivojlantirishning psixologik-pedagogik asoslari	19
<i>Dadonova Aziza Tulkunovna</i>	
Ilk o'spirinlik yoshidagi o'quvchilarning o'z-o'ziga bo'lgan munosabatini psixologik tahlili	23
<i>Mamaradjabova Bog'zoda Abdilxakimovna, Panjiyeva Nargiza Botirovna</i>	
Oliy ta'lim tizimida muammoli o'qitish texnologiyasi	30
<i>Tuksanova Zilola Izatulloyevna</i>	
Shahar va qishloq yuqori sinf o'quvchilarida irodaviy sifatlarning qiyosiy tahlili	35
<i>Mamaradjabova Bog'zoda Abdilxakimovna, Panjiyeva Nargiza Botirovna</i>	
Organik kimyo ta'limida ochiq tipli STEAM loyihalarini loyihalashning didaktik modeli va uni amaliyotga joriy etish metodikasi	41
<i>Bo'riyev Rashidbek O'ktamjonovich</i>	
Kasbiy kompetentlikni oshirishda raqamli ta'lim vositalari va interaktiv metodlardan foydalanish	47
<i>Fazildjanova Nilufar Xikmatdjanovna</i>	
Tadbirkorlik faoliyatini innovatsion va ta'lim ekotizimidagi roli	50
<i>Mirzayeva Nigora Ibrohimjon qizi</i>	
Kasbiy ta'lim muassasalarida strategik boshqaruvni joriy etishning nazariy-metodologik asoslari	54
<i>Qobilov Voxidjon Zoxidovich</i>	
Психологические факторы мотивации личности в обучении иностранному языку	58
<i>Мухамеджанова Римма Рашидовна</i>	
Jadid ma'rifatparvarlarining boshlang'ich ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarda kitobxonlik fazilatlarini va madaniyatini shakllantirishdagi pedagogik tajribalari	66
<i>Ahmadov Olimjon Shodmonovich, Fayzilova Mohinur Azamhon qizi</i>	
Talabalarda kelajakni strategik modellashtirish layoqatini rivojlantirish bo'yicha ilg'or xorijiy va mahalliy tajribalarning qiyosiy-pedagogik tahlili	70
<i>Sadriddinova Feruza Meliyevna</i>	
Bo'lajak pedagoglarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda fanlararo abstsessial va ordinal bog'liqlikka asoslangan metodik ta'minotni takomillashtirish	75
<i>Xudayberganov G'ayrat Quranboyevich</i>	
Maktablarda chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni isloh qilish: muammo va yechimlar	80
<i>Qudratov O'ktam G'ofurovich</i>	
Ustoz-shogird tizimida raqamli vositalardan foydalanishning metodik asoslari	85
<i>Tursunov Xusniddin Isomovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda maktab va oila hamkorligining pedagogik imkoniyatlari	88
<i>Safarova Halovat Barnoyevna</i>	
Globallashtirish sharoitida tolerantlik madaniyatining nazariy-metodologik asoslari	91
<i>Yusupova Maftuna Ilxomidin qizi, Qurbonova Zebiniso Mamarajab qizi</i>	
Adobe After Effects muhitida inersiyaviy davomiylik va ustma-ust harakatni avtomatlashtirishning matematik modeli (Ziyoanim Overlap)	97
<i>Hakimov Bahtiyorjon Muzaffar o'g'li</i>	
Tizimli yondashuv asosida talabalarning raqamli kompetensiyasini takomillashtirishning uch komponentli konseptual modeli	101
<i>Kulidjanova Yulduzxon Inomjon qizi</i>	



The Theory of Fostering Students' Responsibility for Natural Resources and Waste in Karakalpak Folk Pedagogy.....	104
<i>Tursinbekova Qundizgul Joldasbekovna</i>	
Soft skills kompetensiyalarining ilmiy-pedagogik mohiyati va zaruriyati: soft skills tushunchasining evolyutsiyasi, asosiy komponentlari, turlari va tasnifi	109
<i>Igamberdiyeva Gulmira Botir qizi</i>	
O'zbek va ingliz tillarida "yolg'izlik" konseptining leksik-semantik xususiyatlari.....	115
<i>Sabina Saitmurodova Olim qizi</i>	
Bo'lajak pedagoglarni kasbiy tayyorlashda art-pedagogikaning imkoniyatlari.....	119
<i>Komolova Iroda Xamidullayevna</i>	
9-sinf iqtisodiy va ijtimoiy geografiya darslarida GIS texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari va uslubiy muammolari	123
<i>Sapayeva Gulbahor Odilbek qizi</i>	
Zamonaviy biologiya ta'limida interaktiv metodlarni qo'llashning nazariy jihatlarini	126
<i>Abdullayeva Guzalxan Vladimirovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini xalqaro baholash dasturlari bilan ishlashga tayyorlashning zarurati	130
<i>Berdimurodova Mexrubon Masudjonovna</i>	
Nutq nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning ijtimoiy moslashuv jarayoniga ta'sir etuvchi omillar	136
<i>G'aniyeva Maloxat Odilovna</i>	
Ruhiiy salomatlikni mustahkamlashda psixologik treninglarning ahamiyati	140
<i>Maqsuda Norbosheva, Nafisa Abduyeva</i>	
Xitoy tilini xalqaro miqyosda o'qitishning zamonaviy tendensiyalari.....	144
<i>Shasaidova Lola Shamaksudovna</i>	
Социально-экологический кризис в Южном Приаралье.....	149
<i>Сейтова З. П.</i>	
Iqtisodiy fanlar bo'yicha to'garak faoliyatini tashkil etishning nazariy-metodik asoslari.....	153
<i>Xusanboyeva Tursunoy Muxammadqasimjanovna</i>	
Motivational Readiness for Continuous Professional Development.....	162
<i>Okilova Kamola Sadulloevna</i>	
Raqamli ta'lim muhitida o'quvchilarda antisotsial xulq-atvorning oldini olishning pedagogik mexanizmlari ..	166
<i>Davronova Zarrina Baxtiyorovna</i>	
Yapon tilini o'qitishda らしい (rashii) evidentsiallik ko'rsatkichini o'rgatishning pedagogik xususiyatlari	173
<i>Musayeva Aziza Ibrohim qizi</i>	
Ta'lim tizimini rivojlantirishda pedagogik prognostikaning nazariy-metodologik asoslari va metodik imkoniyatlari.....	178
<i>Sharipova Shaxnoza Xasanovna</i>	
Qoraqalpoq nasrida inson psixologiyasi.....	183
<i>Dosbergenova Miyrigul Sadiratdinovna</i>	
Tibbiy ta'lim klasterida talaba markazlashgan muhitni shakllantirish: kredit-modul sharoitida intellektual adaptiv tyutorlik texnologiyasining pedagogik imkoniyatlari	188
<i>Ibragimova Venera Azadovna</i>	
Turli yosh davrlarida perfektsionizm va maqullanish motivatsiyasi o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish.....	193
<i>Nazaraliyeva Marhabo Xayitboyevna</i>	
Frazeologik derivatsiyaning lingvomadaniy xususiyatlari	197
<i>Raxmonova Gavhar Nuritdinovna</i>	
Development of adolescent thinking and its psychodiagnostics and psychocorrection	202
<i>Samarova Shoxista Rabidjanovna</i>	
Jadid pedagogik konsepsiyasi va zamonaviy ta'lim tizimi integratsiyasi: tarixiy-pedagogik tahlil va amaliy yo'nalishlar	209
<i>Shamsullayeva Ruxsatoy Sunnatullayevna</i>	

Kredit-modul tizimi asosida kasbiy ta'lim tashkilotlari o'quvchilarini kasbiy kompetensiyalarini baholashning pedagogik mexanizmi	213
<i>Shoyqulov Baxtiyor Bakirovich</i>	
Modern Socio-Psychological Trends in the Study of Emotional Alienation	219
<i>Yangibaeva Dildorakhon Rakhmon kizi</i>	
O'quv-mashq guruhi futbolchilarining jismoniy tayyorgarligi.....	225
<i>Xolmaxmatov Boburjon Musurmon o'g'li</i>	
Sport ta'limida axborot bilan boyitilgan o'quv muhitini yaratish va vizualizatsiya vositalarining didaktik imkoniyatlari	230
<i>Muxitdinova Nigora Mexriddinovna</i>	
Bo'lajak mutaxassislarda yangi avlod darsliklari bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari	236
<i>Abdujalilov Farruxbek Po'latjon o'g'li</i>	
O'smirlarda deviant xulq-atvor shakllanishining psixologik xususiyatlari.....	239
<i>Robiya Toshpo'latova Akmal qizi, X. A. Asqarova</i>	
Aralash ta'limning pedagogik mohiyati va didaktik tamoyillari.....	244
<i>Azerbayeva Elmira Muratbayevna</i>	
Texnikaviy fanlarni o'qitish jarayonini tashkil qilish	248
<i>Niyazova Bibiniso Boltayevna</i>	
Estetik tarbiya va ruhiy go'zallik: san'at va adabiyotga muhabbat orqali shaxsdagi buzg'unchi xulq-atvorning oldini olish.....	253
<i>Nigora Yo'ldasheva Sodiqjon qizi</i>	
Raqamli texnologiyalar asosida bo'lajak qishloq xo'jaligi muhandislarini loyihalash-konstruktsiyalash faoliyatiga tayyorlash metodikasini takomillashtirish	259
<i>Xolmo'minova Shahnoza Gulyam qizi</i>	
Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining raqamli kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari.....	264
<i>Axrorov Xurshid Xamidovich</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tanqidiy tafakkurini rivojlantirishning nazariy asoslari	271
<i>G'ofurova Mohidil Sayfutdin qizi</i>	
Bo'lajak muhandislarning geoinformatsion kompetentligini rivojlantirish muammosi tahlili	275
<i>Berdiyev Dilshod Faxriddin o'g'li</i>	
Академия Маъмуна: силиконовая долина средневековья.....	279
<i>Аъзамова Диёра Дильшодовна</i>	
Biblioterapiya vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida qadriyatlarga ijobiy munosabatni shakllantirish yo'llari va vositalari.....	286
<i>Komolova Shoxsanam Muzaffar qizi</i>	
Ixtisoslik fanlarini o'qitishda raqamli modellashtirish vositalarini didaktik moslashtirish: integrativ ta'lim platformasi misolida.....	291
<i>Usarov Jabbor Eshbekovich</i>	
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning o'qishga bo'lgan munosabatini klasterli yondashuv asosida rivojlantirish – pedagogik muammo sifatida.....	297
<i>Umarova Gulhayo Murodiljon qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari.....	301
<i>Salayjonova Saodatjon Maxsudbek qizi, Nyutonova Xilola Lochinbekovna</i>	
Boshlang'ich ta'limda kompetensiyaviy yondashuv va zamonaviy o'qitish strategiyalarining nazariy-amaliy asoslari	305
<i>G'ulomjonova Mohinur Ulug'bek qizi</i>	
Формирование профессиональных компетенций педагога будущего в условиях цифровой трансформации и внедрения технологий искусственного интеллекта.....	309
<i>Sodikova Diloromkhon Botirjon qizi</i>	
Geografiya darslarida milliy meros va qadriyatlarni o'rgatish metodikasini takomillashtirish hamda uning samaradorligini statistik baholash.....	313
<i>Xabibullayeva Muxabbatxon Nu'monjonovna</i>	



Jadidlar tomonidan darslik va o'quv qo'llanmalarining nashr etilishi	319
Aslonov Madamin Mansurovich	
Chust va Samarqandda ekoturizm rivojlanishida milliy hunarmandchilikning o'rni va ahamiyati	324
Allanov Shuxrat Qilichovich	
Maktab direktor o'rinbosarlarining aksiologik kompetensiyasini diagnostika qilish mezonlari	329
Toxirov Botirjon G'ofurjon o'g'li	
Talabalarda maqsadga intiluvchanlik namoyon bo'lishining psixologik mexanizmlari va shakllanish jarayonlari	335
Babadjanova Saiyora Khushnutovna	
Maktabgacha ta'lim muassasasi rahbarining kasbiy faoliyatida stress va vaqt bosimini boshqarish usullari	340
Xalilova Soxibaxon Sadikjanovna	
Namoyishli tajriba va laboratoriya ishlari asosida o'quvchilarning amaliy kompetensiyalarini shakllantirishning metodik-didaktik ta'minoti	346
Isroilov Shermurod Shamsiddin o'g'li	
Xotin-qizlarda ijtimoiy-psixologik xulq-atvor strategiyalarining migratsiya turiga bog'liq differensial namoyon bo'lishi	353
Axmedova Dildora Olimjonovna	
Rus tilidagi mediamatnlar bilan ishlashda geymifikatsiya elementlarini qo'llash	359
Maxkamov Shoxjaxon Rustambek o'g'li	
Shaxsning o'zini anglash jarayonida refleksiyaning psixologik mohiyati	365
Achilova Durdona	
Bo'lajak oligofrenopedagoglar--ning praksiologik tayyorgarligining tarkibiy tuzilmasi	370
Niyozova Dिल्фуза Rustam qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirishda interaktiv raqamli o'yinlar va vizualizatsiya texnologiyalaridan foydalanish metodikasi	375
Teshaxo'jayeva Mohlaroy Shuhratxo'ja qizi	
Bo'lajak surdopedagoglarni tayyorlashda innovasion surdo-texnologiyalar, neyro-trenajyorlar va faol praksiologik metodlarning interaktiv sinergiyasini joriy etish	380
X. I. Malikova	



RUS TILIDAGI MEDIAMATNLAR BILAN ISHLASHDA GEYMIFIKATSIYA ELEMENTLARINI QO'LLASH

Maxkamov Shoxjaxon Rustambek o'g'li
Andijon davlat pedagogika instituti assistent-o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada o'zbek tilida ta'lim oladigan (o'zga tili) talabalarga rus tilini o'rgatishda mediamatnlar bilan ishlash jarayoniga geymifikatsiya elementlarini singdirishning nazariy asoslari va amaliy modeli ko'rib chiqiladi. Muallif geymifikatsiyani o'yin asosidagi ta'lim va jiddiy o'yinlardan farqlab, uni o'yin dizayni unsurlarini o'yin bo'lmagan muhitga ko'chirish sifatida talqin qiladi. Ballar, nishonlar, reyting jadvallari, darajalar, kvestlar va narrativ elementlarga hamda nazariy jihatdan o'z-o'zini belgilash nazariyasi va "oqim" konsepsiyasiga tayangan holda mediamatn turlariga moslashtirilgan metodik model taklif etiladi. Matn bilan ishlashning uch bosqichi (o'qish/ko'rishdan oldin - jarayonda - keyin) uchun geymifikatsiyalangan topshiriqlar tizimi, shuningdek, Kahoot!, Quizizz, Wordwall, LearningApps, Quizlet kabi vositalardan foydalanish yo'llari yoritiladi. Mediamatnlarni tanlash mezonlari, geymifikatsiyaning cheklovlari va xatarlari ilmiy muvozanat nuqtai nazaridan tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: geymifikatsiya, mediamatn, mediakompetensiya, kommunikativ kompetensiya, rus tili, o'zga tili guruhlar, motivatsiya, raqamli ta'lim, autentik material.

Abstract: The article examines the theoretical foundations and a practical model for integrating gamification elements into work with media texts when teaching Russian to students of Uzbek-speaking (non-native) groups. Distinguishing gamification from game-based learning and serious games, the author treats it as the transfer of game-design elements into non-game contexts. A methodological model is proposed in which points, badges, leaderboards, levels and quests are matched to types of media texts and grounded in self-determination theory and the concept of flow. The article describes a system of gamified tasks for the three stages of text work (pre-, while-, post-) and ways of using Kahoot!, Quizizz, Wordwall, LearningApps and Quizlet. Criteria for selecting media texts, along with the limitations and risks of gamification, are analysed from a position of scholarly balance.

Key words: gamification, media text, media competence, communicative competence, Russian language, non-native groups, motivation, digital education, authentic material.

Аннотация: В статье рассматриваются теоретические основания и практическая модель внедрения элементов геймификации в процесс работы с медиатекстами при обучении русскому языку студентов узбекоязычных (иноязычных) групп. Разграничивая геймификацию, игровое обучение и серьёзные игры, автор трактует её как перенос элементов игрового дизайна в неигровую среду. Предлагается методическая модель, в которой баллы, значки, рейтинговые таблицы, уровни и квесты соотнесены с типами медиатекстов и опираются на теорию самодетерминации и концепцию потока. Описывается система геймифицированных заданий для трёх этапов работы с текстом (до - во время - после), а также способы использования Kahoot!, Quizizz, Wordwall, LearningApps, Quizlet. Критерии отбора медиатекстов, ограничения и риски геймификации анализируются с позиции научной сбалансированности.

Ключевые слова: геймификация, медиатекст, медиакomпетенция, коммуникативная компетенция, русский язык, иноязычные группы, мотивация, цифровое образование, аутентичный материал.

KIRISH

Rus tili O'zbekiston oliy ta'lim tizimida alohida o'rin egallaydi: u ko'p tarmoqli mutaxassisliklarda ilmiy adabiyot, hujjatlar va professional muloqotning muhim vositasi bo'lib qolmoqda. Shu bilan birga, o'zbek tilida ta'lim oluvchi guruhlarda rus tilini o'qitish o'ziga xos qiyinchiliklarga duch keladi. An'anaviy darslik matnlari ko'pincha talabani kundalik axborot iste'moliga uzoq bo'lib, ular na tilning tirik holatini, na yoshlarni qiziqtiradigan mavzularni aks ettiradi. Aynan shu yerda mediamatnlar - yangiliklar, ijtimoiy tarmoq postlari, subitrlri videolar, podkastlar va infografika - o'quv jarayonini haqiqiy til muhitiga yaqinlashtiruvchi resurs sifatida namoyon bo'ladi.



Talabalarining mediamatn bilan ishlashga bo'lgan tabiiy qiziqishini o'quv maqsadlariga yo'naltirish uchun qo'shimcha metodik mexanizm zarur. Geymifikatsiya - Deterding va hamkasblari ta'rifiga ko'ra "o'yin dizayni elementlarini o'yin bo'lmagan kontekstlarda qo'llash" ("the use of game design elements in non-game contexts") - ana shunday mexanizmlardan biridir [1, p. 9]. Bugungi talaba avlodi smartfon va ilovalar muhitida ulg'aygani bois o'yinga xos qayta aloqa, bosqichma-bosqich rivojlanish va yutuq belgilarini tabiiy qabul qiladi. Bu holat geymifikatsiyani rus tili darslarida, xususan, mediamatn bilan ishlashda sinab ko'rishni dolzarb qiladi.

O'zbekistonda ta'limni raqamlashtirishga qaratilgan davlat siyosati bu izlanishlar uchun huquqiy va institutsional zamin yaratadi. "Ta'lim to'g'risida"gi qonun uzluksiz ta'lim tizimida zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni rag'batlantiradi [20], "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasi esa ta'lim jarayoniga raqamli vositalarni keng joriy etishni ustuvor vazifa sifatida belgilaydi [21]. Shu nuqtai nazardan geymifikatsiyalangan mediamatn topshiriqlari nafaqat til ko'nikmalarini, balki raqamli savodxonlik va mediakompetensiyani ham rivojlantiradigan integrativ yechim bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Ushbu maqolaning maqsadi - rus tilidagi mediamatnlar bilan ishlashda geymifikatsiya elementlarini qo'llashning nazariy asoslarini oydinlashtirish va o'zbek tilli auditoriyaga moslashtirilgan amaliy metodik modelni taklif qilishdir. Ishning ilmiy qiymati shundaki, unda geymifikatsiya elementlari, mediamatn turlari va shakllantiriladigan nutqiy ko'nikmalar o'rtasidagi bog'liqlik yaxlit tizim sifatida ko'rsatiladi hamda usulning cheklovlari xolisona baholanadi. Tadqiqot ma'lum bir mutaxassislikka bog'lanmagan holda, barcha yo'nalishlar talabalari uchun umumiy metodik yondashuvni ishlab chiqishga qaratilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Geymifikatsiya tushunchasining ilmiy ta'rifi S. Deterding va hamkasblari tomonidan berilgan: ular geymifikatsiyani "o'yin dizayni elementlarini o'yin bo'lmagan kontekstlarda qo'llash" deb belgilaydilar va uni jiddiy o'yinlar hamda o'yinbop dizayndan chegaralaydilar [1, p. 9-13].

K. Werbach va D. Hunter bu hodisani biznes, ta'lim va ijtimoiy sohalarda "o'yinbop tafakkur"ni tatbiq etish sifatida talqin qilib, dinamika, mexanika va komponentlardan iborat uch qatlamli modelni taklif etadilar [2].

K. Kapp esa geymifikatsiyaning ta'limiy jihatiga urg'u berib, uni o'quv mazmuni bilan uzviy bog'lash zarurligini ta'kidlaydi [3].

Geymifikatsiyaning samaradorligiga bag'ishlangan empirik tadqiqotlar bir xil xulosaga kelmaydi. J. Hamari, J. Koivisto va H. Sarsa 24 ta empirik ishni tahlil qilib, geymifikatsiya asosan ijobiy ta'sir ko'rsatsa-da, natija "u tatbiq etilayotgan kontekst hamda uni qo'llovchi foydalanuvchilarga kuchli bog'liq" ("greatly dependent on the context in which the gamification is being implemented, as well as on the users using it") ekanini aniqlaydilar [4, p. 3025-3030].

D. Dicheva va hamkasblari 2010-2014-yillarda chop etilgan 34 ta amaliy tadqiqotni tizimli xaritalashdan o'tkazib, ballar, nishonlar, darajalar, progress-panellar va reyting jadvallari eng ko'p qo'llaniladigan elementlar ekanini ko'rsatadilar [5, p. 79-84].

M. Sailer va L. Homner meta-tahlilida geymifikatsiya kognitiv ($g = 0,49$), motivatsion ($g = 0,36$) va xulq-atvorga oid ($g = 0,25$) o'quv natijalariga kichik, ammo statistik jihatdan ahamiyatli ijobiy ta'sir qilishini qayd etadilar [6, p. 77-90].

J. Koivisto va J. Hamari esa geymifikatsiya tadqiqotlarining o'sish tendensiyasini umumlashtiradilar [7].

Ayni paytda M. Hanus va J. Fox 16 haftalik uzunlamasiga tadqiqotida faqat ball va reytingga tayangan geymifikatsiya ichki motivatsiyani pasaytirishi mumkinligini ko'rsatib, muhim ogohlantirish beradi [8, p. 157-160].

Geymifikatsiyaning motivatsion asoslari psixologik nazariyalarga borib taqaladi. E. Deci va R. Ryanning o'z-o'zini belgilash nazariyasi inson xatti-harakati mustaqillik, kompetentlik va ijtimoiy bog'liqlik ehtiyojlari bilan boshqarilishini ta'kidlaydi [10, p. 68-70]. Aynan shu mualliflarning 128 ta tadqiqotni qamragan meta-tahlili tashqi mukofotlar ichki motivatsiyani susaytirishi mumkinligini ("overjustification" effekti) ko'rsatadi [9, p. 627-629].

M. Csikszentmihalyining "oqim" konsepsiyasi esa topshiriq murakkabligi va o'quvchi mahorati muvozanatlashganda yuzaga keladigan to'liq berilib ketish holatini tavsiflaydi [11].

Mediamatn tushunchasi medialogvistika doirasida ishlab chiqilgan. T. G. Dobrosklonskaya mediamatnni verbal va media qatorlarning uzviy birligi sifatida ta'riflab, uning asosiy turlarini - yangiliklar, axboriy-tahliliy matnlar, publitsistika va reklamani ajratadi [17].

Mediakompetensiya masalasi A. V. Fyodorov ishlarida chuqur o'rganilgan: u mediakompetentlikni media axborotni tahlil qilish, baholash va yaratish qobiliyati sifatida talqin qiladi [16].

Xorijiy an'anada W. J. Potter mediasavodxonlikni kognitiv yondashuv asosida yoritsa [14], D. Buckingham uni madaniy va tanqidiy o'lchovlarda ko'rib chiqadi [15].

Chet tilini o'qitish metodikasi nuqtai nazaridan autentik materiallarning roli A. Gilmore tomonidan asoslangan: u autentik matnlar motivatsiyani oshirishini, biroq matn murakkabligi va topshiriq dizayni to'g'ri tanlanishi shartligini ta'kidlaydi [13, p. 103-110].



S. Krashenning kirituv gipotezasi (i+1) o'quvchiga uning joriy darajasidan bir pog'ona yuqori bo'lgan tushunarli material zarurligini ilgari suradi ^[12].

Rus tilini chet tili sifatida o'qitish metodikasida E. I. Passovning kommunikativ yondashuvi muloqotni o'quv jarayonining modeli sifatida qurishga chorlaydi ^[19], E. G. Azimov va A. N. Shukin lug'ati esa metodik terminologiyani mustahkam bazasini beradi ^[18].

O'zbekistonda rus tilini o'qitish va geymifikatsiya masalalari so'nggi yillarda tadqiqotchilar e'tiborini tortmoqda. S. Qosimov talabalarning o'quv motivatsiyasini oshirishda geymifikatsiya metodini o'z-o'zini belgilash va "oqim" nazariyalariga tayangan holda ko'rib chiqadi ^[22].

M. N. Xabibova va S. U. Kurbonova O'zbekiston talabalarida rus tili og'zaki nutqini rivojlantirishda o'yinli shakllar va raqamli platformalardan foydalanishni yoritadi ^[23].

A. B. Kasimov esa rus tilini o'zbek tili bilan qiyoslab o'rgatishning intensiv metodikasini taklif etadi ^[24].

Biroq aynan mediamatn bilan ishlashga geymifikatsiyani tizimli tatbiq etish masalasi hali yetarlicha o'rganilmagan bo'lib, mazkur maqola shu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot nazariy-tahliliy xarakterga ega. Asosiy metodlar sifatida ilmiy adabiyotni qiyosiy-tahliliy o'rganish, tushunchalarni tavsiflash hamda metodik modellashtirish qo'llanildi. Xalqaro va mahalliy manbalar (geymifikatsiya nazariyasi, motivatsiya psixologiyasi, medialingvistika va rus tili metodikasi) mazmuniy tahlildan o'tkazildi va o'zbek tilli auditoriya sharoitiga moslashtirildi. Taklif etilayotgan model muallifning oliy ta'limdagi amaliy kuza-tuvlariga hamda O'zbekistonning me'yoriy-huquqiy hujjatlariga tayanadi ^[20; 21]. Modelning empirik samaradorligini eksperimental tekshirish keyingi tadqiqotlar vazifasi sifatida belgilanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Geymifikatsiya, o'yin asosidagi ta'lim va jiddiy o'yinlarning chegaralari

Amaliyotda bu uch tushuncha ko'pincha aralashtiriladi, biroq metodik jihatdan ular farqlanadi. Jiddiy o'yin (serious game) - bu maxsus o'quv maqsadi uchun yaratilgan yaxlit o'yin mahsuloti. O'yin asosidagi ta'lim (game-based learning) darsda tayyor o'yindan didaktik vosita sifatida foydalanishni nazarda tutadi. Geymifikatsiya esa o'yinning o'zini emas, balki uning ayrim elementlarini - ball, daraja, kvest kabilarni - an'anaviy o'quv faoliyatiga qo'shishdir ^[1, p. 11-13]. Boshqacha aytganda, mediamatnni geymifikatsiyalashda matn tahlili o'z mohiyatini saqlaydi, ammo unga yutuq mantig'i va qayta aloqa mexanizmi kiritiladi. Bu farq amaliy jihatdan muhim: o'qituvchi butun darsni o'yinga aylantirmasdan, faqat maqsadga muvofiq elementlarni tanlab qo'llaydi.

Geymifikatsiya elementlari va ularning didaktik vazifasi

Adabiyotda eng ko'p tilga olinadigan elementlar - ballar, nishonlar, reyting jadvallari, darajalar, kvestlar, narrativ (storytelling), tezkor qayta aloqa, avatarlar va missiyalar ^[5, p. 79-82]. Ballar bajarilgan ishning miqdoriy o'lchovi bo'lib, o'quvchiga siljish hissini beradi. Nishonlar muayyan yutuqni ramziy tan olish sifatida kompetentlik ehtiyojini qondiradi. Reyting jadvallari raqobat va ijtimoiy taqqoslash muhitini yaratadi, biroq ularni ehtiyotkorlik bilan qo'llash lozim, chunki doimiy raqobat kuchsiz o'quvchilarni ruhan cho'ktirishi mumkin ^[8, p. 158-160]. Darajalar va kvestlar o'quv yo'lini bosqichlarga bo'lib, "oqim" holatini yuzaga keltirishga xizmat qiladi ^[11]. Narrativ elementi mediamatnlar bilan ishlashda alohida ahamiyatga ega: ketma-ket topshiriqlarni yagona syujet ("tergovchi bo'l", "jurnalist bo'l") atrofida tashkil etish o'quvchini matnga ma'noli tarzda jalb qiladi.

Nazariy asoslar

Geymifikatsiyaning kuchi tashqi rag'batda emas, balki asosiy psixologik ehtiyojlarni qondirishida. O'z-o'zini belgilash nazariyasiga ko'ra, o'quvchi topshiriqni o'zi tanlash imkoniga ega bo'lsa (mustaqillik), qiyinchilikni yengib borsa (kompetentlik) va guruh bilan hamkorlik qilsa (ijtimoiy bog'liqlik), uning ichki motivatsiyasi mustahkamlanadi ^[10, p. 68-70]. Shu bois geymifikatsiyalangan mediamatn topshiriqlarida tanlov erkinligini (masalan, bir necha video orasidan tanlash) va hamkorlik formatini nazarda tutish maqsadga muvofiq.

Csikszentmihalyining "oqim" nazariyasi topshiriq murakkabligini o'quvchi mahoratiga moslashtirishni talab qiladi: material juda oson bo'lsa - zerikish, juda qiyin bo'lsa - xavotir yuzaga keladi ^[11]. Bu talab bevosita Krashenning i+1 tamoyili bilan uyg'unlashadi ^[12]. Kommunikativ yondashuv esa geymifikatsiyalangan topshiriqlar oxir-oqibat real muloqotga xizmat qilishini ta'minlaydi ^[19].

Mediamatn turlari va ularning o'quv salohiyati

Rus tili darslari uchun mediamatnlarning quyidagi turlari amaliy ahamiyatga ega: yangiliklar maqolalari va internet-nashrlar (o'qib tushunish, leksika), ijtimoiy tarmoq postlari (norasmiy uslub, qisqa nutq), subtitrlar



videoroliklar (tinglab tushunish), podkastlar (og'zaki nutqni idrok etish), infografika (matn va vizual axborotni birlashtirish) hamda reklama (madaniy kod va pragmatika) ^[17]. Har bir tur muayyan nutqiy faoliyat turiga mos keladi va geymifikatsiya elementini tanlashda shu moslikka tayaniladi.

Metodik model: matn bilan ishlashning uch bosqichi

Taklif etilayotgan model mediamatn bilan ishlashning an'anaviy uch bosqichini geymifikatsiya bilan boyitadi.

Birinchi bosqich - o'qish/ko'rishdan oldin (pre-stage). Maqsad - fon bilimlarni faollashtirish va qiziqish uyg'otish. Bu yerda tezkor viktorina samarali: Kahoot! yoki Quizizz orqali mavzuga oid bashorat savollari beriladi, to'g'ri javob ball bilan taqdirlanadi. Masalan, video ko'rilishidan oldin talabalar sarlavha va bitta kadr asosida mazmunni taxmin qiladilar. Bu bosqichda kalit leksikani Quizlet kartochkalarida "o'rganish darajasi"ni ochish orqali o'zlashtirish mumkin.

Ikkinchi bosqich - jarayonda (while-stage). Maqsad - matnni faol idrok etish. Videoroliklar bilan ishlashda "tinglab-topshiriq" formati qo'llaniladi: talaba video davomida ma'lum belgilar (raqamlar, ismlar) topganda ball oladi. Yangiliklar matni bilan ishlashda "axborot kvesti" tashkil etiladi: matn qismlarga bo'linadi, har bir qism yechilganda keyingisi ochiladi (darajalar mantig'i). LearningApps platformasida matnni to'g'ri ketma-ketlikka joylashtirish yoki bo'shliqlarni to'ldirish topshiriqlari darajali tarzda beriladi.

Uchinchi bosqich - o'qish/ko'rishdan keyin (post-stage). Maqsad - o'zlashtirilgan materialni nutqiy mahsulotga aylantirish. Bu yerda missiya va narrativ elementlari ustunlik qiladi: talabalar "muxbir" rolida o'qigan yangilik asosida qisqa reportaj tayyorlaydilar yoki infografika yaratadilar. Wordwall vositasidagi guruhli o'yinlar leksik va grammatik materialni mustahkamlaydi, jamoaviy ball esa ijtimoiy bog'liqlikni kuchaytiradi. Yakuniy nishon ("Media-tahlilchi" beji) butun siklni yakunlaydi.

Geymifikatsiya va formativ baholash

Geymifikatsiyalangan tizimning yashirin, ammo qimmatli imkoniyati - uzluksiz formativ baholashdir. Ball va daraja mexanizmi aslida talabaning har bir qadamini qayd etuvchi diagnostika vositasiga aylanadi: o'qituvchi Kahoot! yoki Quizizz hisobotlari orqali qaysi savol ko'pchilikka qiyin bo'lganini darhol ko'radi va keyingi mashg'ulotni shunga qarab tuzatadi. An'anaviy nazoratdan farqli o'laroq, bunday baholash talabada qo'rquv emas, balki o'yin qoidasi sifatida qabul qilinadi; xato jazolanmaydi, u shunchaki keyingi urinishga sabab bo'ladi. Bu jihat o'z-o'zini belgilash nazariyasidagi kompetentlik ehtiyoji bilan bevosita bog'liq ^[10, p. 68-70]: talaba o'z o'sishini raqamlarda ko'rib, harakatining natijasiga ishonch hosil qiladi. Shuningdek, jamlangan ball tarixi semestr davomida portfolio vazifasini o'taydi va yakuniy baho bilan uyg'unlashtirilishi mumkin.

Mahalliy sharoitga moslashuv: Telegram-botlar

O'zbekiston auditoriyasi uchun alohida amaliy yechim - Telegram muhitidan foydalanish. Mamlakatda bu messenger talabalar orasida deyarli universal aloqa vositasi bo'lgani bois, unga qurilgan o'quv botlari qo'shimcha ilova o'rnatishni talab qilmaydi va past internet tezligida ham barqaror ishlaydi. Oddiy bot yordamida "kunlik mediamatn" formatini yo'lga qo'yish mumkin: har kuni qisqa rus tilidagi yangilik yuboriladi, unga uch-to'rt savol ilova qilinadi, to'g'ri javoblar ball sifatida jamlanadi, hafta yakunida esa guruh reytingi e'lon qilinadi. Bunday format auditoriyadan tashqari mustaqil ishlashni tizimlashtiradi va tilga kundalik "mikro-doza" tamoyilida yondashishni shakllantiradi. Muhimi, bot mazmunini o'qituvchining o'zi boshqaradi, demak, material dastur talablari va guruh darajasiga aniq moslanadi.


Elementlar va matn turlarining o'zaro mosligi

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, har bir mediamatn turi "o'z" geymifikatsiya elementini talab qiladi. Yangiliklar matni va internet-nashrlar bilan ishlashda kvest va darajalar mantig'i eng tabiiy yechim: matn qismlarga bo'linib, har biri yechilgach keyingisi ochiladi, natijada o'qib tushunish va leksik zaxira izchil kengayadi. Subtitrlar videorolik uchun tezkor viktorina va ball tizimi (Kahoot!, Quizizz) mos keladi - ular tinglab tushunishni real vaqt rejimida mashq qildiradi. Podkast ustida ishlash missiya formatida samarali kechadi: talaba tinglagan materiali asosida aniq audio-topshiriqni bajaradi va darhol qayta aloqa oladi. Ijtimoiy tarmoq postlari, aksincha, yengil raqobat muhitini ko'taradi - Wordwalldagi guruhli o'yinlar va reyting norasmiy yozma nutq ko'nikmasini charxlaydi. Infografika bilan ishlashda narrativ va nishonlar birlashadi: talaba vizual va matnli axborotni yaxlit hikoyaga jamlaydi. Nihoyat, reklama matni rolli missiyalar uchun boy material beradi, chunki unda til pragmatikasi va madaniy kod yaqqol namoyon bo'ladi. Ko'rinib turibdiki, element tanlovi bezak masalasi emas - u shakllantirishni ko'zda tutilgan nutqiy ko'nikmadan kelib chiqadi.

Bunday moslashtirishning maqsadga muvofiqligini miqdoriy ma'lumotlar ham qo'llab-quvvatlaydi. M. Sailer va L. Homner meta-tahlili natijalariga ko'ra, geymifikatsiyaning ta'siri o'quv natijasining turiga qarab farqlanadi: kognitiv sohada u eng yuqori ($g = 0,49$), motivatsion sohada o'rtacha ($g = 0,36$), xulq-atvor sohasida esa



nisbatan past ($g = 0,25$) [6, p. 77-90]. Quyidagi diagramma (1-rasm) bu nisbatlarni yaqqol ko'rsatadi va muhim metodik xulosaga olib keladi: geymifikatsiyadan avvalo bilim va tushunishni mustahkamlash vositasi sifatida foydalanish o'zini ko'proq oqlaydi, xulq-atvorni o'zgartirishga esa u yordamchi omil sifatida qaraladi.



1-rasm: Geymifikatsiyaning o'quv natijalariga ta'siri: meta-tahlil ko'rsatkichlari (M. Sailer va L. Homner ma'lumotlari asosida [6])

Mediamatnlarni tanlash mezonlari

O'zbek tilli guruhlar uchun mediamatn tanlashda quyidagi mezonlarga amal qilinadi. Til jihatidan qulaylik - matn o'quvchining joriy darajasidan bir pog'ona yuqori bo'lishi ($i+1$), aks holda geymifikatsiya ham qiziqishni ushlab tura olmaydi [12; 13, p. 103-107]. Madaniy relevantlik - matn o'zbek talabasiga tanish yoki qiziqarli mavzuni qamrab olishi, madaniy jihatdan kamsituvchi bo'lmasligi. Dolzarblik - voqelikka yaqin, yangi materiallar motivatsiyani oshiradi. Hajm - bir darsda ishlanadigan matn nazorat qilinadigan hajmda bo'lishi, uzun matnlar bosqichlarga bo'linishi kerak. Bu mezonlar geymifikatsiya elementlarining ortiqcha kognitiv yuk keltirmasligini ta'minlaydi.

Taklif etilgan model geymifikatsiyaning kuchli tomonlaridan foydalanishga imkon beradi, biroq uni tanqidiy baholash zarur. Empirik adabiyot geymifikatsiya avtomatik natija bermasligini ko'rsatadi: uning ta'siri kontekst, o'quvchi xususiyatlari va dizayn sifatiga bog'liq [4, p. 3029-3031; 6, p. 77-90]. Aynan shu sabab modelni "ball qo'shish" dan iborat sifatida tushunish xato bo'lardi.

Eng jiddiy xatar - tashqi va ichki motivatsiya o'rtasidagi ziddiyat. Deci, Koestner va Ryanning meta-tahlili moddiy va kutilgan mukofotlar ichki qiziqishni susaytirishi mumkinligini isbotlaydi [9, p. 627-629]. Agar talaba mediamatnni faqat ball uchun o'qisa, matnning o'ziga bo'lgan qiziqish so'nishi mumkin.

Hanus va Fox tadqiqoti buni amalda tasdiqlaydi: faqat reyting va nishonga tayangan kurs vaqt o'tishi bilan motivatsiyani pasaytirgan [8, p. 158-160]. Bundan xulosa - geymifikatsiya elementlari mustaqillik va kompetentlikni qo'llab-quvvatlashi, sof raqobatga emas, balki shaxsiy o'sish va hamkorlikka yo'naltirilishi lozim.

Ikkinchi cheklov - yangilik effekti (novelty effect). Yangi vosita dastlab qiziqish uyg'otadi, ammo vaqt o'tib bu ta'sir susayadi. Shu bois vositalarni almashtirib turish va geymifikatsiyani mazmun bilan chuqur bog'lash tavsiya etiladi [3].

Uchinchi jiddiy masala - raqamli tengsizlik. O'zbekistonning turli hududlarida internet va qurilma bilan ta'minlanish bir xil emas. Kahoot! yoki Quizizz kabi onlayn vositalar barcha talabalar uchun teng imkoniyat bermasligi mumkin. Bu holat "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasi ilgari surgan teng imkoniyat tamoyili bilan uzviy bog'liq [21]. Yechim sifatida oflayn variantlar (bosma kartochkalar, sinf ichidagi o'yinlar) va past resurs talab qiladigan Telegram-botlarni birga qo'llash mumkin.

Nihoyat, geymifikatsiya o'qituvchidan qo'shimcha metodik tayyorgarlik va vaqt talab qiladi. Model samarali bo'lishi uchun o'qituvchi vositalarni bilishi va topshiriqlarni til maqsadlariga aniq bog'lashi shart. Aks holda o'yin elementi ta'lim mazmunidan ustun kelib, natija salbiy bo'lishi mumkin [8, p. 159-160].

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tahlil rus tilidagi mediamatnlar bilan ishlashda geymifikatsiya elementlarini qo'llash o'zbek tilli guruhlarda o'quv motivatsiyasini oshirish, mediakompetensiya va kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning istiqbolli yo'li ekanini ko'rsatadi. Shu bilan birga, usul universal davo emas: uning samarasi dizayn sifati, kontekst va o'quvchi ehtiyojlarini hisobga olishga bog'liq.

Amaliy tavsiyalar quyidagilardan iborat. Birinchidan, geymifikatsiya elementlarini mediamatn turi va shakllantiriladigan ko'nikmaga qarab tanlash lozim. Ikkinchidan, ball va reytingga emas, balki mustaqillik, kompetentlik va hamkorlikni qo'llab-quvvatlovchi mexanizmlarga urg'u berish kerak. Uchinchidan, matnni i+1 tamoyili va madaniy relevantlik mezonlariga muvofiq tanlash zarur. To'rtinchidan, raqamli tengsizlikni hisobga olib, onlayn va oflayn vositalarni uyg'unlashtirish tavsiya etiladi. Beshinchidan, o'qituvchilar uchun geymifikatsiya vositalari bo'yicha metodik seminarlar tashkil etish maqsadga muvofiq.

Kelgusi tadqiqotlar vazifasi - taklif etilgan modelning samaradorligini eksperimental tarzda tekshirish, turli mutaxassislik yo'nalishlari talabalarida uning ta'sirini qiyoslash hamda o'zbek tilli auditoriya uchun geymifikatsiyalangan mediamatn topshiriqlari bankini yaratishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Deterding S., Dixon D., Khaled R., Nacke L. From game design elements to gamefulness: defining "gamification" // Proceedings of the 15th International Academic MindTrek Conference: Envisioning Future Media Environments. - New York: ACM, 2011. - P. 9-15.
2. Werbach K., Hunter D. For the Win: How Game Thinking Can Revolutionize Your Business. - Philadelphia: Wharton Digital Press, 2012. - 148 p.
3. Kapp K.M. The Gamification of Learning and Instruction: Game-Based Methods and Strategies for Training and Education. - San Francisco: Pfeiffer, 2012. - 336 p.
4. Hamari J., Koivisto J., Sarsa H. Does Gamification Work? - A Literature Review of Empirical Studies on Gamification // Proceedings of the 47th Hawaii International Conference on System Sciences. - Waikoloa: IEEE, 2014. - P. 3025-3034.
5. Dicheva D., Dichev C., Agre G., Angelova G. Gamification in Education: A Systematic Mapping Study // Educational Technology & Society. - 2015. - Vol. 18, No. 3. - P. 75-88.
6. Sailer M., Homner L. The Gamification of Learning: a Meta-analysis // Educational Psychology Review. - 2020. - Vol. 32, No. 1. - P. 77-112.
7. Koivisto J., Hamari J. The rise of motivational information systems: A review of gamification research // International Journal of Information Management. - 2019. - Vol. 45. - P. 191-210.
8. Hanus M.D., Fox J. Assessing the effects of gamification in the classroom: A longitudinal study on intrinsic motivation, social comparison, satisfaction, effort, and academic performance // Computers & Education. - 2015. - Vol. 80. - P. 152-161.
9. Deci E.L., Koestner R., Ryan R.M. A meta-analytic review of experiments examining the effects of extrinsic rewards on intrinsic motivation // Psychological Bulletin. - 1999. - Vol. 125, No. 6. - P. 627-668.
10. Ryan R.M., Deci E.L. Self-determination theory and the facilitation of intrinsic motivation, social development, and well-being // American Psychologist. - 2000. - Vol. 55, No. 1. - P. 68-78.
11. Csikszentmihalyi M. Flow: The Psychology of Optimal Experience. - New York: Harper & Row, 1990. - 303 p.
12. Krashen S.D. The Input Hypothesis: Issues and Implications. - London; New York: Longman, 1985. - 120 p.
13. Gilmore A. Authentic materials and authenticity in foreign language learning // Language Teaching. - 2007. - Vol. 40, No. 2. - P. 97-118.
14. Potter W.J. Media Literacy. - 8th ed. - Thousand Oaks: SAGE Publications, 2016. - 456 p.
15. Buckingham D. Media Education: Literacy, Learning and Contemporary Culture. - Cambridge: Polity Press, 2003. - 219 p.
16. Фёдоров А.В. Развитие медиакомпетентности и критического мышления студентов педагогического вуза. - М.: Изд-во МОО ВПП ЮНЕСКО "Информация для всех", 2007. - 616 с.
17. Добросклонская Т.Г. Медиалингвистика: системный подход к изучению языка СМИ. - М.: Флинта; Наука, 2008. - 264 с.
18. Азимов Э.Г., Щукин А.Н. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам). - М.: ИКАР, 2009. - 448 с.
19. Пассов Е.И. Коммуникативный метод обучения иноязычному говорению. - 2-е изд. - М.: Просвещение, 1991. - 223 с.
20. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, 2020-yil 23-sentabr, № O'RQ-637 // O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.
21. "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasi: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoni.
22. Qosimov S. Gamification for enhancing students' learning motivation // The Lingua Spectrum. - 2025. -Vol. 2, No. 1.- P. 453-456.
23. Хабибова М.Н., Курбонова С.У. Развитие разговорной речи на русском языке у студентов Узбекистана // Modern Science and Research. - 2025. - Т. 4, № 5. - С. 595-600.
24. Касимов А.Б. Инновационная методика интенсивного обучения студентов русскому языку в сопоставлении с их родным узбекским // Ilmiy tadqiqotlar va jamiyat muammolari. - 2026. - Т. 2, № 1. - С. 392-395.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №7(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.